XALQ DEPUTATLARI JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-mart VII-6-31-8-112-K/25 Jarqo‘rg‘on tumani

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risida

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Jarqo‘rg‘on tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari M.Ibrohimovning 2025 yil 22-yanvardagi 14-00740-son xatini ixalq deputatlari tuman Kengashining tegishlidoimiy komissiyasida muhohama qilinib va sessiyada deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi Jarqo‘rg‘on tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i o‘rinbosari M.Ibrohimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori **1-ilovaga** muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi orinbosari **(R.Hamrayev)**ga, bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Allayorov)zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



AVAZOV ELMUROD
RO‘ZIMURODOVICH

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 1-martdagi
VII-6-31-8-112-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	**Tuman nomi**	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Er usti	Er osti	Er usti	Er osti	Er usti	Er osti	Er usti	Er osti
1	Jarqo‘rg‘on tumani	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3	1,3

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2025-yil 1-martdagi
VII-6-31-8-112-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Jarqo‘rg‘on tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2

** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient belgilashga haqli*